# SHARTNOMA № 20

**Toshkent shahar** "24" Yanvar 2022 yil

**«Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi» MChJ**, keyingi o'rinlarda ***«Xizmat ko'rsatuvchi»*** deb yuritiladi, Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi **S.S.Muzafarov** nomidan, bir tomondan va "Ohangaron shahar MTB", keyingi o'rinlarda ***«Buyurtmachi»*** deb yuritiladi, A.K. Xamrayev nomidan, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

## 1.SHARTNOMANING PREDMETI

**1.1. «Xizmat ko'rsatuvchi»** mazkur shartnomaga muvofiq **«Buyurtmachi»**ga quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi «Axborot resurslarini yuritish va yangilash, hududlarda yaratilgan va yaratilayotgan davlat axborot resurslari va axborot tizimlarini ro'yxatga olishda ko'maklashish»

## 2.XIZMAT KO'RSATISHNING SUMMASI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

**2.1.** Ko'rsatiladigan xizmatning **1-chorak uchun** shartnoma qiymati: **4.500.000 (To`rt million besh yuz ming)** so'm deb belgilandi QQS siz.

**2.2.** Shartnoma umumiy qiymatining 30 (o'ttiz) foizini «Buyurtmachi» shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida «Xizmat ko'rsatuvchi»ning hisob raqamiga oldindan ko'chirib beradi.

**2.3.** Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab, 10 (o'n) kun ichida shartnoma summasining qolgan 70 (yetmish) foizi «Buyurtmachi» tomonidan «Xizmat ko'rsatuvchi»ga to'lab beriladi.

## 3.XIZMATLAR KALKULATSIYASI

| № | Bajariladigan ishlar | Bahosi | Soni | Muddati | Qiymati | Umumiy qiymati - 01.01.2022 31.03.2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Elektron hujjat almashinuviga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish. | 100 000 | 1 | oyiga | 1 500 000 | 4 500 000 |
| | **Jami (bitim summasi)** | | | | | **4 500 000** |

## 4.TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

«Bajaruvchining» majburiyatlari:

**4.1.** Ishni va unga oid hujjatlarni ushbu shartnoma asosida «Buyurtmachiga sifatli va o'z vaqtida topshirish.

«Buyurtmachining» majburiyatlari:

**4.2.** Ishni 30 kun muddatda ko'zdan kechirish. Ishning mazkur shartnoma talablariga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda «Buyurtmachi» shu muddatda «Bajaruvchiga» aniqlagan nomuvofiqliklar haqida ma'lumotlarni aks ettiruvchi xabarni yuboradi.

## 5.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH

**5.1.** «Xizmat ko'rsatuvchi» shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni shartnomaning 2.2-bandida belgilangan muddatda bajarmaganda yoki to'liq bajarmaganda «Buyurtmachi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida, biroq bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

**5.2.** To'lovning qolgan qismini mazkur shartnomaning 2.3 bandida ko'rsatilgandan ortiq muddatga kechiktirganda «Buyurtmachi» har bir kechiktirilgan kun uchun, to'lovi kechiktirilgan summaning 0,5 foizi miqdorida, ammo to'lovi kechiktirilgan summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

**5.3.** Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

**5.4.** Shartnomani bajarish yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmaganda, amaldagi qonunchilikka asosan iqtisodiy sud orqali hal etilishi mumkin.

## 6. BOSHQA SHARTLAR

**6.1.** Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda ikkinchi tarafning talabi bilan faqat sudining qaroriga binoan bekor qilinishi va o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bir taraflama bekor qilish yozma taklif berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Taklif olinganidan so'ng 30 kun muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnomani o'zgartirish va bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

## 7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

**7.1.** Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, tomonlarga bir nusxadan beriladi.

**7.2.** Shartnomaning amal qilish muddati u imzolangan sanadan boshlab, shartnoma shartlari to'liq bajarilgan kunga qadar etib belgilanadi.

**7.3.** Shartnoma majburiyatlarini bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

**7.4.** Shartnomani amal qilish muddati 24. 01. 2022 y.dan 31. 12. 2022 y.gacha

## TOMONLARNING REKVIZITLARI:

**XIZMAT KO'RSATUVCHI:**

«Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi» MCHJ
100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani
Shahrisabz 16-A uy,
h/r 20210000900896586002
ATB "Qishloq qurulish bank"
Yakkesaroy filiali MFO 01189
INN 305571039 OKED 62090
Tel: 98-361-36-66, 90-968-70-17

**Direktor** ______________ **S.S.Muzafarov**

**BUYURTMACHI:**

Охангарон шахар Мактабгача таълими бўлими
Манзил: Охангарон шахар 3-кичикноҳия "Ватан" мфй
Тел./факс:646-48-80
Газна х/в: 23402000300100001010 МФО: 00014
Газна СТИР: 201122919
Газна бўлинмаси: Охангарон шахар
Бюдж. ташкилоти СТИР: 207097281 ОКЭД: 84113
Ш.к.
Ш.х. 100022860274415309110025013

Mudir ______ A.L. Xamrayev

969480

## Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI"
Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

28.05.2018 — 611664 — ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 305571039

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shaxrisabiz ko'chasi 16-A UY,

Guvohnoma: Toshkent shahri, Mirobod tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: GV8473266270

**2022 yil 19 yanvar** **Ohangaron shahar**

# HUQUQIY XULOSA

Ohangaron Shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi va **"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" MCHJ** o'rtasida tuzilishi belgilangan shartnoma loyixasi yuborilgan.

Ohangaron Shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi va **"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" MCHJ** o'rtasida qiymati 4,500,000 (to'rt million besh yuz ming) so'mlik shartnoma loyixasi tuzilishi belgilangan.

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339, 353-357-moddalari hamda "Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun xujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazib;

## XULOSA QILAMAN:

Ushbu shartnoma loyihasining amaldagi qonun xujjatlari talablariga javob berishi va qonunga mos holda tuzilganligini;

Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish tartibi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda "Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga ko'ra belgilanganligini aniqladim.

Yuqoridagilarga asoslangan xolda shartnoma loyixasi qonun xujjatlari talablari asosida tuzilgan deb xisoblayman.

**Ohangaron shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti** **O'smonov.B**